
G'ALABA MUBORAK TOSHLOQLIK SPORTCHI YOSHLAR!

Bugun "Quvnoq startlar" sport musobaqasini final bosqichida Farg'ona viloyati (Toshloq tumani yoshlar jamoasi) va Namangan viloyati jamoalari bellashib Farg'ona viloyati 4:3 hisobida Namangan viloyati jamoasi ustidan g'alaba qozonib Respublika g'olibi 1-o'rinni egalladi.

Musobaqada g'olib va sovrindor bo'lganlarga diplom, medal, kubok va qimmatbaho sovg'alar topshirildi. Shuningdek, g'olib jamoaga viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i tomonidan Samarqand, Buxoro viloyatlariga sayohatga yo'llanma berildi.

Toshloq tumanidagi 32-umumta'lim maktabi o'quvchilaridan tashkil topgan jamoani bugungi g'alabasi bilan muborakbod etamiz.

2023-08-21 14:46:13